

SHIMOLIY AFG‘ONISTON O‘ZBEKLARINING ETNIK TARKIBI VA HUDUDIIY JOYLASHUVI (SAMANGON, BALX VA SARIPUL VILOYATLARI MISOLIDA)

Xo‘jamurodov Nodirbek Sultonmurodovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-9902-333X>

nodir9388@gmail.com

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shimoliy Afg‘onistonning (Janubiy Turkiston) uchta yirik viloyati – Samangon, Balx va Saripul misolida o‘zbek aholisining etnik tarkibi, urug‘-aymoqchilik tizimi va joylashuv geografiyasi tahlil qilinadi. Muallif dala tadqiqotlariga tayangan holda hududdagi o‘zbek urug‘larining demografik salmog‘ini ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, maqolada hududiy o‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari va boshqa etnik guruhlar bilan madaniy-lingvistik integratsiya jarayonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shimoliy Afg‘oniston, Samangon, Saripul, Balx, o‘zbek urug‘lari, qatag‘on, laqay, dialektologiya, etnodemografiya, Janubiy Turkiston.

Аннотация: В данной статье анализируется этнический состав, родоплеменная структура и географическое распределение узбекского населения на примере трех крупных провинций Северного Афганистана (Южного Туркестана) — Самангана, Балха и Сарипуля. На основе полевых исследований автор определяет демографический вес узбекских родов. Также в статье рассматриваются фонетические особенности региональных узбекских диалектов и процессы культурно-лингвистической интеграции с другими этническими группами.

Ключевые слова: Северный Афганистан, Саманган, Сарипуль, Балх, узбекские племена, катаганы, лакаи, диалектология, этнодемография, Южный Туркестан.

Abstract: This article analyzes the ethnic composition, tribal system, and geographical distribution of the Uzbek population using the examples of three major provinces in Northern

Afghanistan (Southern Turkestan) — Samangan, Balkh, and Sar-e Pol. Based on field research, the author highlights the demographic significance of Uzbek tribes in the region. Furthermore, the article explores the phonetic characteristics of regional Uzbek dialects and the processes of cultural and linguistic integration with other ethnic groups.

Keywords: Northern Afghanistan, Samangan, Sar-e Pol, Balkh, Uzbek tribes, Kataghan, Lakay, dialectology, ethnodemography, Southern Turkestan.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Afg‘onistonning shimoliy hududlari tarixan turkiy xalqlarning markaziy manzilgohlaridan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham bu mintaqa o‘zining rang-barang etnik qiyofasi va murakkab urug‘-aymoqchilik tuzilishi bilan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Samangon, Balx va Saripul viloyatlarida istiqomat qiluvchi o‘zbeklar nafaqat son jihatidan salmoqli o‘ringa ega, balki o‘zlarining qadimiy urug‘ nomlari va shevaviy xususiyatlarini saqlab qolganliklari bilan ham ajralib turadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Turkiston mintaqasiga kiruvchi Samangon viloyati o‘zining ko‘p millatli tarkibi bilan ajralib turadi. Bu hududda asosan o‘zbek, tojik, pushtun, tatar va hazora xalqi yashab keladi. O‘zbeklar tarkibi esa yanada murakkab bo‘lib, viloyatning turli qishloq va hududlarida qo‘ng‘irot, laqay, uyg‘ur, beklar, uymoq, chig‘atoy, qipchoq singari urug‘larning vakillarini uchratish mumkin[5].

Samangon viloyati o‘zbeklari son va urug‘ jihatdan nihoyatda rang-barangdir. Viloyat bo‘yicha o‘tkazilgan dala etnografik

tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Samangonda jami to'rt yuz ellik mingga yaqin xo'jalik mavjud bo'lib, shularning ancha katta qismi – bir yuz sakson mingdan ortig'i – o'zbeklarga tegishli. Bu esa hududning o'zbeklarning yirik markazlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Viloyatning Bobolar va Tai Xunak hududlarida qatag'on, laqay, toz, qang'li, ulus singari urug'larning yigirma to'rt mingdan ortiq xo'jaligi istiqomat qiladi. Manqo'tan va Axtaxonada ikki ming ikki yuz, Shekiyada esa baytika urug'idan bo'lgan besh ming xo'jalik mavjud. Bu hududlarga qaraganda, Dukuda ming, Shuluktida to'rt yuz, Sho'roqda ming xo'jalik biroz kamroq bo'lsa-da, ular ham o'zbeklarning qadimiy manzilgohlaridan hisoblanadi.

Alasha, Kalcha, Kaploni va Chaqmoqli kabi qishloqlarda ikki-uch mingdan ziyod xo'jalik istiqomat qiladi, Dalhakida bu ko'rsatkich besh mingga yetadi. Largon va Oqtumshuqda to'rt ming, Chavg'oyda ikki ming, Jui-Zindonda ikki ming besh yuz xo'jalik mavjud.

Viloyatning boshqa hududlari – So'fi qa'la, Boyqishloq, Ko'nai-Bak, Sabzipushbobo, Qo'shtegirman, Oynacha, Qoraqosh, Eroq'li, Okpaykal, Taxtirustam, Qiziltumshuq, Mulkulolbobo, Jaytamg'ali, Orishli, Nurqishloq, Gulqishloq, Gavqishlok, Sarg'angli, Mantosh, Og'apitav – o'zbeklarning uzviy yashab kelayotgan hududlari bo'lib, bu yerda bir mingdan uch minggacha xo'jaliklar jamlangan.

Bu manzilgohlarning barchasida o'zbeklarning turli urug'lari, xususan, qatag'on, laqay, ulus, toz, qang'li, baytika va boshqa guruhlar tarixan shakllangan etnik ijtimoiy birliklar sifatida mavjuddir[1].

Samangon viloyati Hazrati Sulton ulusvolisi markazi aholisi tarkibida o'zbeklar ming xo'jalik bilan yetakchilik qiladi. Hududdagi boshqa qishloqlarda ham o'zbeklar ko'p sonli xo'jaliklarni tashkil etadi: Osiyoibod va Sarikiyadagi qishloqlarda ikki ming, Kichchi Minag'arda ming xo'jalik mavjud. Xo'jaquloq, Begmatquduq va Qadamalida har bir qishloqda ikki ming, O'takettida esa uch ming xo'jalik mitan urug'i vakillari istiqomat qilmoqda. Shu bilan birga, Urlamish, Katan va Cho'zmada uyg'urlar yashab, bu hududda jami yetti ming

xo'jalikni tashkil qilmoqda. Qariog'och qishlog'ida esa ikki ming xo'jalik o'zbeklar istiqomat qiladi[2].

Darai Yusuf ulusvolisida etnik tarkib ancha murakkab. Tabarnav va Tulkichi qishloqlarida qang'li urug'ining uch ming xo'jaligi yashaydi. Farmonboyda yobu urug'i ikki ming, Sandalda bir ming besh yuz, Poytabada ikki ming, Qashqa va Chaptalda uch ming, Xujabalandda ikki ming, Oqkotal va Madrasada uch ming, Zirakida uch ming, Bubakida va Tog'chida ming xo'jalik mavjud.

Ulusvoli geografik jihatdan yuqori qoriyalar va etak qoriyalariga bo'lingan. Yuqori qoriyalarda hazoralar, etak qoriyalarida esa o'zbeklar istiqomat qiladi. Suhbatdoshlarning guvohliklariga ko'ra, hazoralar bilan qo'shni yashovchi ba'zi o'zbeklar shia mazhabiga mansub bo'lib, hazoralarning asosiy qismi ham shia hisoblanadi. Boshqa viloyatlarda esa o'zbeklar, tojiklar va boshqa sunniy guruhlar bilan qo'shni yashovchilar sunniy hisoblanadi. Shu bilan birga, Rui Duob ulusvolisida forsiyzabon tatarlar istiqomat qilishi hududning etnik va mazhabiy xilma-xilligini yanada boyitadi[3].

Balx viloyati Afg'onistondagi eng yirik hudud bo'lib, uning aholisi taxminan ikki yarim million kishi hisoblanadi. Shu aholining yetmish foizini turkmanlar va o'zbeklar tashkil etadi. Hudud turli turkiy etnik guruhlarining maskani sifatida ajralib turadi. Shu jumladan, viloyatda elboxdi, boyandar, nogaysi, balkoni, qorabo'yin, bo'ri, qozoq, buduq, laqay, qo'ng'iroq, dalmar, urishkon, mo'g'ul, qipchoq, sarik, oli temur, boloniy va boshqa urug' va elatlar istiqomat qiladi. Bu xilma-xillik Balxning etnik tarkibi, tarixiy migratsiya yo'llari va turkiy xalqlarning hududiy tarqalishini yaxshi aks ettiradi[5].

Saripul viloyatida aholining 65 foizini o'zbeklar, qolgan qismini hazoralar, tojiklar, pushtunlar va aymoqlar tashkil qiladi. Viloyat markazi Saripul shahri bo'lib, qadimiy Juzjon hududining muhim madaniy va iqtisodiy markazi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Mo'g'ullar hujumidan keyin eski shahar vayronaga aylangach, aholi hozirgi shahar hududini qayta obodonlashtirish ishlarini boshlagan[4].

Saripul shahrining aksariyat qismi, ya'ni 75 foizi o'zbek millatiga mansub aholidan iboratdir. Bu o'zbeklar o'z navbatida juda rang-barang urug'-aymoqlarga bo'linadi. Jumladan, shaharda *lochin, qora ko'zi, abdal, yuzbegi, izgil, poshshoyi, karochun, qipchoq, xalaj, chilangar, dog'li, totor, shamolach, g'uzi, arlot, itka chabos, kora siyrak, tabar, tag'oy, chalma, beklar* kabi o'zbek qabilalarining vakillari yashaydi[5]. Ushbu viloyatda yashovchi aholining tirikchilik manbayi, asosan, qishloq xo'jaligiga, xususan, dehqonchilik va chorvachilikka bog'liq. Viloyatning ma'muriy hududlari (ulusvolilar) Sayyod, Gusfandi, Sangchorak, Sayidobod, Kuhiston, Balxob, Suzmaqa'la kabi markazlarni o'z ichiga oladi. Viloyat markazining nomi bo'lgan "Saripul" esa forsiy atama bo'lib, u geografik joylashuvdan kelib chiqqan holda "ko'prikboshi" degan tarixiy ma'noni anglatadi[6].

Sayyod ma'muriy hududi viloyat markaziga nisbatan janubiy-g'arbda, taxminan 20 kilometr masofada o'rnashgan. Ushbu tuman aholisi juda xilma-xil etnik tarkibga ega: aksariyatni (60 %) o'zbeklar tashkil etsa, qolgan 40 % ni aymoqlar, tojiklar, hazoralar va arablar (har biri 10 % atrofida) o'zaro bo'lishib olgan. E'tiborlisi, kelib chiqishi turkiy bo'lgan aymoqlar bu hududda dariy tilida so'zlashadi. Xuddi shunday, arablar ham o'zlarini dariyzabon (forsibonlar) deb e'tirof etib, muloqotda dariy tilini qo'llashadi. Fors tilida so'zlashuvchi guruhlarining shevalari, garchi o'zaro tushunishga xalaqit bermasa-da, talaffuz va ayrim lug'aviy birliklar bo'yicha o'zaro farqlanadi. Bu farqlar, asosan, ularning etnik kelib chiqishi bilan bog'liq. Jumladan, arab forsiyzabonlarining nutqida arabcha o'zlashmalar ko'proq qatnashsa, hazoralar va aymoqlar shevalarida ularning turkiy ildizlaridan darak beruvchi so'zlarga duch kelinadi[7].

Gusfandi tumani (ulusvolisi) viloyat markazidan taxminan 50 kilometr janubi-sharqda joylashgan bo'lib, u yerning etnik manzarasi ikki asosiy guruhdan tarkib topgan. Bu hududda o'zbek va forsiy tilda so'zlashuvchi xalqlar (aymoq, tojik, mo'g'ul kabi) soni deyarli tenglikni tashkil etadi. Bu

demakki, Gusfandi aholisi o'zbeklar va forsiyzabonlar o'rtasida yarmiga-yarim taqsimlangan bo'lib, bu holat uning madaniy xilma-xilligini belgilaydi[8].

Sangchorak ulusvolisi viloyat markazidan 60 km janubda joylashgan bo'lib, uning asosiy etnik tarkibini (50 %) lovchi o'zbeklar tashkil etadi. Qolgan 50 % ning 30 % forsiyzabon aymoqlar va mo'g'ullar, 20 % esa hazoralardir. Bu aholi asosan qishloq xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik bilan band. Ko'histon ulusvolisi esa markazdan 50 km janubi-sharqda joylashgan bo'lib, etnik dominantlik aymoqlarga tegishli (60 %); o'zbeklar 25 % va tojiklar 15 % ni tashkil etadi. Balxob ulusvolisi (75 km) viloyatning eng chekka nuqtalaridan biri bo'lib, janubi-sharqiy hududda, Sangchorak va Ko'histon ma'muriy chegaralaridan so'ng boshlanadi[9].

Balxob tumanida aymoqlar va mo'g'ullarning forsiy tilda gaplashishga o'tishi ularning forsiyzabon guruhlar qatoriga qo'shilishiga olib kelgan. Bu tog'li hududda o'zbek aholisi yo'q; etnik tarkibni 60 % hazoralar va 40 % aymoqlar tashkil etadi. Hududning "Balxob" deb nomlanishi bejiz emas, chunki u Balx daryosi o'zining boshlanish nuqtasini aynan shu yerdan olganini ko'rsatadi. Ulusvoli jilg'a va ariqchalar bilan qoplangan bo'lishiga qaramay, uning transport infratuzilmasi juda og'ir: tor va sifatsiz yo'llar tufayli mashinalar zo'rg'a harakatlanadi, qish oylarida esa transport aloqasi deyarli uziladi[10].

Suzmaqa'la ulusvolisi viloyat markazidan 25 km masofada janubi-sharqiy yo'nalishda o'rnashgan. Uning aholisi etnik xilma-xillikni namoyish etadi: aksariyat qismini (50 %) o'zbeklar tashkil qilsa, qolgan 50 % esa teng nisbatda hazoralar va tojiklar (har biri 25 %) o'rtasida taqsimlangan. Bu hududda yashovchi aholi, hududning agrar xususiyatiga ko'ra, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi[11].

Sayidobod hududi viloyat markazidan 20 km shimolda joylashgan bo'lib, u rasman e'lon qilinmagan bo'lsa-da, mahalliy aholi uni ulusvoli deb qabul qiladi. Bu yerning etnik tarkibi juda xilma-xil va unda o'zbeklar yo'q. Hudud aholisining asosiy qismini teng ulushda

(35 %) arablar va pushtunlar, qolgan 30 % ni esa hazoralar tashkil etadi. Qizig'i shundaki, arablar bu yerda o'zlarini sayyidlar avlodi deb e'tirof etishadi, bu esa ularning hududga "Sayidobod" (Sayidlarning maskani) deb nom berishiga sabab bo'lgan[12].

Dariy, tojik, hazora va eron tillari genetik jihatdan sharqiy eron tillari oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, ular dialektal jihatdan, xususan, talaffuz va ayrim lug'aviy birliklarda farq qiladi. Bu etnik guruhlarining migratsiya tarixi va qo'shni tillar ta'sirini aks ettiradi. Misol uchun, Mashhad tojiklari eroniy shevaga ko'proq moyil bo'lsa, Hirot tojiklarida bu yaqinlik past darajada. O'zbek dialektologiyasida ham shunday farqlar mavjud: Saripul o'zbeklarining tili Andxo'y va Shibirg'on guruhleri tili bilan solishtirganda boshqacha bo'lib, u Maymana o'zbeklari guruhi tiliga ancha yaqin turadi. Shu bois, Afg'oniston o'zbeklarini tadqiq etishda yuqorida aytib o'tilgan Turkiston va Qatag'on kabi mintaqaviy bo'linishlarga asoslanish ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi. Afg'oniston o'zbek dialektologiyasida ikkita asosiy fonetik xususiyat ajralib turadi: Qatag'on o'zbeklari nutqida "j"lash ustunlik qilsa, Turkiston o'zbeklari guruhida "ye"lash ("e"lash) moyilligi yaqqol seziladi. Bu holatlarning mintaqaviy farqlanishiga qaramay, ikkala hududda ham dialektal aralashmalar kuzatiladi.

Saripul o'zbeklari guruhida, xususan, Sangchorak, Gusfandi va Suzmaqal'a kabi tumanlarda yashovchilar Turkiston o'zbeklariga nisbatan ko'proq "j"lash fonetik xususiyatini namoyish etishadi[11].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Olib borilgan dala tadqiqotlari va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Shimoliy Afg'onistonning Samangon, Balx va Saripul viloyatlari o'zbek etnosining qadimiy va yirik manzilgohlaridan biri bo'lib, bu yerda o'zbeklar ko'plab tumanlarda aholining 50 foizidan 75 foizigacha bo'lgan salmoqli qismini tashkil etadi. Mintaqada qatag'on, laqay, qo'ng'iroq, qang'li va mitan kabi 30 dan ortiq yirik o'zbek urug'larining saqlanib qolganligi hududda turkiy xalqlarning shakllanishi uzoq va boy tarixiy jarayonga ega ekanligidan dalolat beradi. Ayrim hududlarda turkiy ildizga ega aymoq va mo'g'ullarning forsiyzabonlikka o'tishi, shuningdek, o'zbeklarning bir qismi hazoralar ta'sirida shia mazhabini qabul qilishi mintaqada etnomadaniy integratsiya va diffuziya jarayonlari faol ekanini tasdiqlaydi. Umuman olganda, Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari o'z etnik o'zligi va urug'chilik an'alarini saqlagan holda, qo'shni xalqlar bilan uzviy madaniy-lingvistik aloqada yashab kelmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Dala yozuvlari, Samangon viloyati, Oybak shahri, Kortai sulh mahallasi, 2021-yil.
2. Dala yozuvlari, Samangon viloyati, Oybak shahri, Juyzindon qishlog'i. 2021-yil.
3. Dala yozuvlari, Samangon viloyati, Oybak shahri, Sabzaposh mahallasi, 2021-yil.
4. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Saripo'l shahri, Behsud mahallasi, 2021-yil.
5. Bahriddin Shark Er Onoli. Torixi muxtasari Turkistoni janubi (Turkistoni Afg'oniston) Tehron, 1386 (xijriy). Sax. 202. (forsiy).
6. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Saripul tumani, Guzarishohon qishlog'i, 2022-yil.
7. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Sayyod ulusvolisi, 2025-yil.
8. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Gusfandi ulusvolisi, 2018-yil.
9. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Sangchorak ulusvolisi, 2018-yil.
10. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Balxob ulusvolisi, 2018-yil.
11. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Suzmaka'la ulusvolisi, 2018-yil.
12. Dala yozuvlari, Saripo'l viloyati, Sayidobod ulusvolisi, 2018-yil.